



TOSHKENT SHAHRINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2023- YIL YANVAR - IYUN
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Sanoat statistikasi
boshqarmasi
Tel.: 71-203-88-07

Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi

(2023- yil yanvar - iyun oylarida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar - iyun oylarida shahar korxonalari tomonidan 53,7 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar - iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 104,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (80,9 %)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 43,7 trln. so'mni tashkil etdi.





B – Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C – Ishlab chiqaradigan sanoat D – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, E – Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 5,3 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 7,8 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda - 26,6 % o'sishi kuzatildi. Tog'kon sanoati va ochiq konlarda ishlash – 4,3 % ga pasayish kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar - iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7,7 trln. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmining 14,3 % ini tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,
(yanvar - iyun oylarida, % da)




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Gaz kondensati




Tabiiy gaz




Neft



Shagʻal



Chaqiq tosh




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar - iyun	2023- yil yanvar - iyun	Farqi +/-
Neft, ming t.	324,3	337,5	13,2
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	18 202,3	16 462,3	-1 740,0
Gaz kondensati, ming t.	380,0	334,3	-45,7
Chaqiq tosh ming t.	347,6	248,0	-99,6


Shagʻal t.

Ishlab chiqaradigan sanoat



2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 43,7 trln. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 81,4 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,
(yanvar - iyun oylarida, % da)**



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 4,3 % ni (2022- yilning yanvar - iyun oylarida – 4,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 24,7 % (22,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 31,4 % (31,8 %) va quyi texnologiyalisi – 39,6 % (40,5%)ni tashkil etdi.





Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 28,4 % (2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,6 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 16,5 % (2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 119,2 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,5 % (2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 24,3 % (2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,5 % (2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 127,1 %) ni tashkil etdi

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati


2023- yilning yanvar - iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 34,4 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (82,5 % ga oshgan), 2371,8 tonna makaron va shunga o'xshash un mahsulotlari (44,7 % ga oshgan), 20 ming tonna mis sim (42,8 %), hamda 10,2 ming tonna mashina yoki qo'lda to'qilgan trikotaj matolari (33,1 %) ishlab chiqarilganligi kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


O'simlik yog'i (tozalangan)	Margarin va yormalar	Yumshoq bug'doy va spelta uni
-----------------------------	----------------------	-------------------------------



Pivo	Aroq	Uzum vinosi
------	------	-------------



Tamaki mahsulotlari	Paxta kalavasi
---------------------	----------------




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar - iyun	2023- yil yanvar - iyun	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, <i>ming tonna.</i>	34,4	62,8	28,4
Paxta kalavasi, <i>ming tonna.</i>	18,5	17,1	-1,5
Margarin va yormalar <i>tonna.</i>	2 269,0	1 992,4	-276,6
Pivo – <i>mln litr</i>	40,6	45,3	4,7
Traktorlar - <i>dona</i>	43,0	10,0	-33,0
Sovutgich va muzlatgichlar - <i>ming dona</i>	302,6	343,0	40,4
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, <i>t.</i>	8 051,0	7 900,0	-151,0
Tamaki mahsulotlari, <i>mln. dona</i>	1 016,6	704,8	-311,8

Metallurgiya sanoati


(yanvar - iyun)



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

(yanvar - iyun oylarida)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyun oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 7,4 % ga kamaygan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 95,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1 814,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar - iyun oylarida)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 122,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,8 %, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 3,9 % ga ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 5600,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar - iyun oylarida)

FHI
% da




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 90,4 % ga oshgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar - iyun oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 98,8 % ni va ishlab chiqarish hajmi 4 863,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar - iyun oylarida)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 89,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar - iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 0,6 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2 442,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(yanvar - iyun oylarida)




2022- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 117,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,8 % ni, fizik hajm indeksi 104,8 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 777,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

(yanvar - iyun oylarida)


2022- yilning yanvar - iyun oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 90,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,2 % ni, fizik hajm indeksi 27,2 % ga ko'paydi, ishlab chiqarish hajmi esa 1828,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

(yanvar - iyun oylarida)




2022 - yilning yanvar - iyun oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 267,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 62,9 % kamaygan bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 172,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

(yanvar - iyun oylarida)



2022- yilning yanvar - iyun oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 139,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar - iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 28,4 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 108,6 % ni, hamda ishlab chiqarish hajmi 12391,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


(yanvar - iyun oylarida)

2022- yilning yanvar - iyun oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 103,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar - iyun oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,3 % ni, fizik hajm indeksi 115,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1869,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.




FHI
% da




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

yanvar - iyun oylarida

trln.
so'm



FHI
% da



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,8 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,5 % ini) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar - iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 5,3 % ga ko'payganligi kuzatildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,
(yanvar - iyun oylarida, % da)




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	248,4	1 937,5	1689,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	6 959,5	5 982,4	-977,1
Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, mln so 'm.	399,4	457,6	58,2

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

(yanvar - iyun oylarida)



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,4 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

(yanvar – iyun oylarida, % da)




Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, mlrd.so‘m	79,2	88,2	9,1
(Xavfli bo‘lgan chiqindilar toksik) kimyoviy, tonna	148,8	156,0	7,2
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta‘minlash, mlrd. so‘m	131,3	165,2	33,9

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan xavfli bo‘lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy bo‘yicha xizmatlar 4,9 % ga, oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 11,5 % ga, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta‘minlash 25,8 % ga, o‘shish kuzatildi.

Iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 16,0 trln.so‘mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 100,8 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 29,8 % ni tashkil etdi.



Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 18,8 trln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 35,1 % ni tashkil etdi.

Toshkent shahrida faoliyat koʻrsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2023- yil 1 iyul holatiga koʻra)

Bugungi kunda Toshkent shahrida 11,5 mingta sanoat korxonalari faoliyat koʻrsatmoqda.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida 765 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Respublika sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham oʻz taʼsirini koʻrsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 307 ta loyiha boʻyicha 8 071,1 mlrd. soʻmlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan boʻlib, 110,7 mln. AQSH dollari miqdorida mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi.

2023-yil yanvar- iyun oylarida yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 1 178 tani tashkil etdi. Shu bilan birga, 2022-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmi 1,3 martaga ko'paydi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari

	2022-yil yanvar-iyun	2023-yil yanvar-iyun
Loyihalar soni, birlik	401	307
Korxonalar soni, birlik	110	125
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm"	4 959,4	8 071,1
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSH dollar"	87,3	110,7
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	698	1 178

Sanoat statistikasi bo'limi

Tel.: (71) 203-88-16